



TRADITIONAL MEDICAL SERVICES IN TURKESTAN

Umid Bozarov

2nd-year master's student at the University of Exact and Social Sciences

ub9276806@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Turkestan, folk medicine, traditional medicine, doctor, treatment methods, natural medicine, social health.

Received: 08.10.25

Accepted: 09.10.25

Published: 10.10.25

Abstract: This article discusses the historically formed traditional medical services in Turkestan, the role of folk medicine in social life, medical practice and its impact on population participation. The specific features of this system, various treatment methods and the connection of this assistance with later medicine are analyzed.

TURKISTON O'LKASIDA AN'ANAVIY TIBBIY XIZMAT SHAKLLARI

Umid Bozarov

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 2-bosqich magistranti,

ub9276806@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Turkiston, xalq tabobati, an'anaviy tibbiyot, tabib, davolash usullari, tabiiy dori vositalari, ijtimoiy salomatlik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkiston o'lkasida tarixan shakllangan an'anaviy tibbiy xizmat shakllari, xalq tabobatining ijtimoiy hayotdagi o'rni, tabiblik amaliyoti va uning aholi salomatligiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, ushbu tizimning o'ziga xos jihatlari, turli kasalliklarni davolash usullari va bu xizmatlarning keyingi davr tibbiyoti bilan bog'liqligi tahlil qilinadi.

ТРАДИЦИОННЫЕ МЕДИЦИНСКИЕ УСЛУГИ В ТУРКЕСТАНЕ

Умид Бозаров

Студент магистратуры 2 курса Университета точных и общественных наук

ub9276806@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Туркестан, народная медицина, традиционная медицина, целитель, методы лечения, натуральная медицина, общественное здравоохранение.	Аннотация: В статье рассматриваются исторически сложившиеся традиционные медицинские услуги в Туркестанском крае, роль народной медицины в общественной жизни, лечебной практике и ее влияние на участие населения. Проанализировать уникальные характеристики этой системы, различные методы лечения и значимость этой помощи для более поздней медицины.
---	---

Kirish. Turkiston o'lkasining boy tarixiy-madaniy merosida xalq tabobati muhim o'rin tutadi. An'anaviy tibbiy xizmatlar, asosan, xalq orasida avloddan-avlodga o'tgan tajriba asosida shakllangan bo'lib, asrlar davomida aholi salomatligini saqlashda xizmat qilgan. Ushbu maqolada Turkiston hududida keng tarqalgan an'anaviy tabobat shakllari, ularning ijtimoiy va madaniy hayotdagi roli, shuningdek, zamonaviy tibbiyot bilan o'zaro aloqasi haqida fikr yuritiladi.

Turkiston o'lkasida tibbiy xizmat ko'rsatishning ilk shakllari qadimdan mavjud bo'lib, bu sohada xalq orasida tabiblar, hakimlar va darveshlarning faoliyati muhim o'rin egallagan. Tabobat ilmiga oid qadimiy qo'lyozmalar, masalan, Abu Ali ibn Sino asarlari, bu hududda tibbiyot rivojlanganini ko'rsatadi. Odamlar ko'proq tabiat bilan uyg'un yashagan va davolanishda ham o'simliklar, hayvonot mahsulotlari, mineral vositalardan foydalangan. Turkistonda tabiblik kasbi sharaflil va muqaddas sanalgan. Tabiblar nafaqat kasalliklarni davolagan, balki odamlar salomatligi uchun zarur maslahatlar bergan. Ba'zi hollarda ular diniy yoki ruhiy muammolar bilan ham shug'ullangan. Tabiblarning kasbiy malakasi tajriba, ustoz-shogird an'anasi asosida shakllangan.[1]

An'anaviy tibbiyotda ishlatilgan vositalar asosan tabiiy bo'lgan: dorivor o'simliklar, asal, sut, yog', baliq yog'i, kumush va mis buyumlar. Terlash, bug' berish, issiq toshlar bilan isitish, ilon yog'i bilan surtish kabi usullar keng qo'llanilgan. Ba'zan ruqya va dam solish orqali ruhiy tazyiqlardan qutulish amaliyoti ham kuzatilgan. An'anaviy tibbiy xizmatlar ko'pincha mahalliy darajada, ya'ni uy sharoitida amalga oshirilgan. Ayrim hollarda tabiblar uyma-uy yurib bemorlarni davolagan. Yirik shaharlarda esa bozorlarda dorishunoslar (attorlar) faoliyat yuritgan bo'lib, turli tabiiy dori vositalarini sotganlar.

Bugungi kunda an'anaviy tibbiyot ayrim jihatlari bilan zamonaviy tibbiyotga uyg'unlashmoqda. Ko'plab tabiiy vositalar zamonaviy farmatsevtika sohasida tadqiq qilinmoqda. Shuningdek, xalq tabobatining ba'zi usullari fizioterapiya va psixoterapiya kabi sohalarda qo'llanmoqda.

XX asrning o'rtalaridan boshlab dunyo miqyosida xalq tabobatiga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi. Masalan, Xitoyda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarning qariyb 40 foizi an'anaviy tabobatga to'g'ri keladi. CHilida bu ko'rsatkich 71 foizga, Hindistonda esa 65 foizga yetadi. Fransuz tadqiqotchisi Mishel Ruze ma'lumotlariga ko'ra, XX asrning 50-yillarida Fransiyada 38 ming atrofida professional shifokorlar faoliyat yuritgan bo'lsa, ulardan ko'proq — taxminan 40-50 ming nafar folbin va an'anaviy tabiblar xizmat ko'rsatgan. Ushbu holatlar jahonda an'anaviy tibbiyotga bo'lgan talab va ishonch ortib borayotganini yaqqol ko'rsatadi. Bu esa Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ushbu yo'nalishga e'tiborini oshishiga sabab bo'ldi.

Markaziy Osiyo hududida esa an'anaviy tibbiyot va tibbiy fanlarning ildizlari juda chuqur tarixga ega. Ayniqsa, X–XI asrlarda, Abu Ali Ibn Sino davrida bu soha yuksak rivoj topgan. Bu davrda dorishunoslik, jarrohlik, tabiblik kabi tibbiy yo'nalishlar katta muvaffaqiyatga erishgan. Ibn Sinoning ilmiy merosidan ma'lum bo'lishicha, u 800 ga yaqin dori vositasini chuqur tadqiq qilgan va ularni turli xastaliklarni davolashda qo'llagan. U yaratgan “Tib qonunlari” asari esa asrlar davomida nafaqat tabiblar uchun qo'llanma, balki madrasalarda ham tibbiyot fanining asosiy darsligi bo'lib xizmat qilgan. Ibn Sinoning bu asarlari Sharq tibbiyotining rivojiga beqiyos hissa qo'shdi.[2]

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida faoliyat yuritgan tabiblar ham Ibn Sinoning ilmiy merosiga tayanganlar. Jumladan, taniqli toshkentlik tabib Bositxon ibn Zoxidxon Shoshiy (1878–1959) o'zining “Favoid ul-adviyya va mavoid ul-ag'ziyya” asarida Ibn Sinoning “Qonun” va “Adviyat al-qalbiya” kabi mashhur kitoblari haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, u yana bir qancha mashhur asarlarni tilga oladi, masalan, Ibn Baytorning “Jomi”i, Antokiy nomi bilan tanilgan tabibning “Tazkirayi uli-l-asbob”i, Shayx Yusuf Bag'dodiy tomonidan yozilgan “Ma la yasa' li-t-tabib jahlah” (“Tabibning bilmasligi – uni qayg'uga soladi”) asari, shuningdek Shayx Ismoil ibn Haybatullohning “Irshod” nomli asari va boshqa manbalar.

Turkistonda bu kabi tibbiy asarlar nafaqat tabiblar orasida qo'llanma sifatida qadrlangan, balki madrasalarda ham rasmiy o'quv fani sifatida o'rgatilgan. An'anaviy tabib bo'lish uchun shaxs avvalo madrasa tahsilini tamomlab, diniy va dunyoviy fanlarni chuqur o'zlashtirishi kerak edi. Dori tayyorlash, kasallikni tashxislash va davolash usullarini to'liq egallash uchun esa Ibn Sino va Zakariyo ar-Roziy kabi buyuk tabiblar asarlarini puxta o'rganish zarur bo'lgan. Bu ilmiy merosni o'zlashtirish uchun arab va fors tillarini bilish ham majburiy sanalgan.

Bundan tashqari, tabiblar islomiy bilimlarni ham mukammal bilishlari shart edi, chunki dori-darmonlar halol va haromlik nuqtai nazaridan ham baholangan. Qur'on, Hadis va fiqh ilmlarini bilgan tabiblarga nafaqat dori tayyorlay olgan, balki bemorga to'g'ri tashxis qo'yib, samarali davolash ishlarini olib borgan.

Shu tariqa, Turkiston o'lkasida shakllangan an'anaviy tibbiy xizmatlar tizimi o'zining diniy, ilmiy va amaliy jihatlari bilan ajralib turar edi. Bu tizimda faoliyat yuritgan tabiblar ko'p yillik o'qish, tajriba va e'tiqod asosida bemorlarni muvaffaqiyatli davolashga erishganlar.[3]

Tabobatda tajriba va kuzatuvlarning tutgan o'rni nihoyatda muhim bo'lgan. Uzoq yillar mobaynida bemorlarni mustaqil ravishda davolab kelgan bilimdon va mohir tabiblar yangi dorilarni yaratishga muvaffaq bo'lganlar. An'anaviy tabobatda tashxis qo'yish usullari xilma-xil bo'lib, bemorning tashqi holati, ayrim a'zolarining ko'rinishi, til, peshob, qon, balg'am holatiga qaralgan. Qizig'i shundaki, yurak urishining o'lchanishi ham erkaklar va ayollar uchun har xil bo'lgan: erkaklarda o'ng, ayollarda esa chap qo'lda o'lchangan. Sharq tabobatida tomir urish (puls) orqali kasallikni aniqlash keng tarqalgan usullardan biri edi.

Shuningdek, davolash jarayonida bemorning mizojini aniq bilish juda zarur hisoblangan. Tabiblar tashqi belgilarni kuzatish, bemorning qanday taom iste'mol qilganini so'rash va sog'lig'idagi o'zgarishlarni aniqlash orqali mizoji haqida tasavvurga ega bo'lganlar. Ammo mizojni chuqur tushunish har bir tabibga ham nasib qilmagan – bu katta tajriba, ustozdan saboq olish, teran tafakkur va tabiiy qobiliyatni talab etgan.

Davolashda parhez va dori-darmon muhim o'rin tutgan. Tabiblar bemorga berilayotgan ovqatni shifobaxshlik xususiyatiga ko'ra tanlagan, bu esa bemorning sog'ayishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu borada maxsus tibbiy asarlar yozilgan, jumladan Abu Bakr Roziyning "at-Tibb al-Mulukiyy" ("Podshohlar tabobati") asarida davolashning parhezga asoslangan usullari yoritilgan.[4]

Turkistonda bo'lgan xorijlik elchilar va tadqiqotchilar ham o'z safarnomalarida mahalliy tabobatga oid qiziqarli tafsilotlarni yozib qoldirishgan. Jumladan, Yu. Skayler mahalliy tabiblarning avval bemorning tashqi holatini o'rganib, mizojini aniqlashga intilishlarini qayd etgan. Mahalliy dorilar odatda oddiy, asosan o'simliklardan tayyorlangan bo'lib, kukun yoki damlama tarzida tayyorlangan. Murakkab aralashmalar zarur bo'lganda esa tabib bir nechta moddalardan iborat retsept berib, bemorning o'zi tomonidan tayyorlanishiga ruxsat bergan.

Tabiblar dorivor o'simliklardan turli xil dori vositalarini tayyorlashgan. Bu vositalarga o'tli damlamalar, ma'junlar, hap shaklidagi dorilar, surmalar, sharbatlar, kukunlar, bog'lab qo'yiladigan dori vositalari va yaraga tortiladigan matolar (plastirlar) kirgan. Har bir tabib o'ziga xos bo'lgan dori tayyorlash usuliga ega bo'lgan va bu dorilar faqat yaqin ko'rgan bemorlariga tavsiya etilgan. Bunday maxfiy retseptlar xalq orasida mashhurlik qozongan va sinovdan o'tgan dorilar hisoblangan.

Xalq tabobatida suyak sinishi yoki lat yeyishi kabi holatlarda maxsus mutaxassislar – siniqchilar faoliyat olib borgan. Ular siniq qo'l yoki oyoqni taxtakachlab, gilmoya surtish orqali mohirlik bilan davolashgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda zamonaviy tibbiyot

joriy etila boshlagan bo'lsa-da, mahalliy aholi hali ham suyak muammolari yuzasidan ko'proq xalq tabiblariga murojaat qilishni afzal ko'rgan. Masalan, A.L. Shvarsning kuzatishlariga ko'ra, odamlar siniqchilarni Evropa vrachlaridan ko'ra ishonchliroq deb bilganlar.

Shuningdek, an'anaviy tabobatda qon olish, qusdirish, massaj, badanni terlatish kabi umumiy muolajalar ham keng qo'llanilgan. Ayniqsa, uqalash usuli, ayniqsa bo'g'imlarga oid muolajalarda muhim hisoblangan. Tabiiy shifobaxsh joylardan foydalanish ham davolashning samarali usuli sanalgan. Masalan, Qo'qon yaqinidagi tuzli ko'llarda, xususan Qamishqo'rg'on ko'lida bezgak va revmatizmga chalinganlar vanna qabul qilish orqali tuzalib ketishgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayrim kishilar turli kasalliklar sababli folbin yoki sehrgarlarga murojaat qilishgan. Ayrimlar esa xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotni birgalikda qo'llab, o'z bilimlari asosida mustaqil davolanganlar. Ular tuzli suvlar, qumlar, mineral buloqlar orqali muolaja olib borishgan. Bu usullar ko'pincha samarali, iqtisodiy jihatdan arzon va oson bo'lgani uchun keng tarqalgan.

Ayniqsa, xalq tabobatida ayollar salomatligiga, xususan ularning reproduktiv sog'lig'iga alohida e'tibor qaratilgan. Bu boradagi muolajalar tabiblik, doyalik, duoxonlik va folbinlik orqali amalga oshirilgan.[5]

Turkiston hududida an'anaviy tibbiyot xizmatlari uzoq tarixga ega bo'lib, u mahalliy aholining ijtimoiy hayoti, urf-odatlar va dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Bugungi kunda ham bu qadimiy bilimlardan foydalanish, ularni zamonaviy tibbiyot bilan uyg'unlashtirish orqali sog'liqni saqlash tizimini yanada mukammallashtirish mumkin.

Ilgari zamonaviy tibbiyot keng tarqalmasidan avval, ko'pgina jamiyatlarda onalar va bolalarga tibbiy yordam, ayniqsa tug'ruq jarayonida, ayollar zimmasida bo'lgan. Bu murakkab vazifani asosan "doya"lar bajarishgan. Doyalar odatda katta yoshli, tajribali ayollar bo'lib, o'z ish faoliyatlarini ko'p yillik kuzatuvlar va qadimiy tajribalar asosida olib borganlar. Ayrim hollarda ular homilador ayolning farzandi o'g'ilmi yoki qizligini ham aniqlashga urinib, yuzning tiniqligi va harakatlarning epchiligi kabi belgilar orqali farazlar bildirganlar.

Doyalar faqat tug'ruq chog'ida emas, balki homiladorlikdan bolani bir yoshgacha parvarishlash jarayonigacha kerakli maslahatlar va ko'rsatmalarni berib kelganlar. Ular homilador ayolning yurish-turishi, ovqatlanishi hamda ruhiy holatini nazorat qilgan.

Qadimdan xalq orasida homilador ayollar uchun amal qilinadigan qat'iy qoidalar va irim-sirimlar mavjud bo'lgan. Ushbu urf-odatlar ko'p hollarda turli xalqlarning qarashlari asosida shakllangan. Bola tug'ilgach, 40 kun davom etadigan "chilla" davrida ham maxsus e'tibor va ehtiyotkorlik talab etilgan bo'lib, bu davrga oid qat'iy qoidalar rioya qilingan.[6]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonga zamonaviy tibbiyot kirib kelgan bo'lsa-da, u an'anaviy tabobatni butunlay siqib chiqarolmadi. Buning sababi

shundaki, SHarq tabobati asrlar davomida shakllanib, sinovdan o'tgan, qadimiy bilimlarga asoslangan amaliyot edi. Bu sohaning rivojlanishida tabobat bo'yicha yozilgan arab va fors tillaridagi asarlarning turkiy tilga tarjima qilinishi, toshbosma kitoblarning keng tarqalishi va madrasalarda tibbiyot fanlarining o'qitilishi katta rol o'ynadi.

Mahalliy aholining an'anaviy davolash usullariga, xususan, kasallikni aniqlash va o'simliklardan tayyorlangan dori vositalari bilan davolashga bo'lgan ishonchi o'zgarishsiz qolgan. Shu bilan birga, islomiy manbalar, ayniqsa hadislar asosida shakllangan tibbiy tavsiyalar, Ibn Sino kabi mashhur SHarq tabiblari yaratgan tashxis va davolash uslublari hanuzgacha qo'llanib kelgan. Bu holat an'anaviy tabobatning o'z mustahkam o'rnini saqlab qolishiga asos bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibn Sino. "Tib qonunlari". Toshkent: Fan, 1990.
2. Xo'jaev A. "O'zbekiston xalq tabobati". Toshkent: Sharq, 2003.
3. Karimov S. "O'zbek xalq tabobati tarixidan". Toshkent: Akademnashr, 2010.
4. Ziyodov X. "Turkiston tarixida tibbiyot". Samarqand: Zarafshon, 2015.
5. Rashidov I. "Tibbiyot va dorishunoslik asoslari". Toshkent: Tibbiyot, 2018.
6. Халқ табobati ва табибларнинг сирлари (Нашрга тайёрловчи Собиралиева М). –Тошкент: Turon zamin, 2014. –Б.292.
7. Ҳикматиллаев Ҳ. Шарқ табobati. –Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. –Б. 50.
8. Жуманазаров Х. Ўзбек халқининг табобат анъаналари // Имом Бухорий сабоқлари. –Тошкент, 2016. –No1. –Б.87.
9. Муҳаммад ат-табиб ал-Ҳаравий. Мизож ҳақида рисола. Таржима, сўзбоши ва изоҳ муаллифлари : Ҳасаний М., Умаров М, Жўраева Ғ. –Тошкент: Медицина, 1991. – Б.3.
10. Ибн Сино бисотидан. Тўпловчилар: А.Ирисов, З.Эгамбердиев. Масъул муҳаррир: О. Абдуллаев. -Тошкент: Медицина, 1980. –Б.31.